XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 28-avgust VI-93-118-2-32-K/24 Buxoro tumani

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi 2024 yil 16 iyuldagi VI-90-93-2-32-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori bilan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv-tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-,24-moddalariga asoslanib xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi 2024 yil 16 iyuldagi “Tumanda 2024 yilgi tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini belgilangan tartibda oshirish to‘g‘risida”gi VI-90-93-2-32-K/24-sonli qarorning ilovasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish ma’qullansin.

2. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining o‘rinbosari S.Ochilov zimmasiga yuklansin.

3. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



NABIYEV RASHID
MAXMUDOVICH

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashining
2024-yil 28-avgustdagi
VI-93-118-2-32-K/24 -son qaroriga
1-ilova

"Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta'minlash maqsadida suv solig'ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga tumanni mahalliy byudjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori

(mln.so‘mda)

№	Tuman mahalliy byudjetining daromadlari				Tuman mahalliy byudjetining xarajatlari	
	Daromad turlari	Yil boshida belgilangan prognoz	VM-79-son qarorga asosan oshirilgan prognoz miqdori	2024-yil uchun aniqlashtirilgan prognoz	Hududiy byudjet taqsimlovchisi nomi	tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasi faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 021,0	2008,4	7029,4	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Buxoro tuman suv yetkazib berish xizmati DM	2008,4

Izoh: Buxoro tumanidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resusrlaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovlari inobatga olingan.

Buxoro viloyati Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi Buxoro tuman “Suv yetqazib berish xizmati” davlat muassasasiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovidan haqiqatda kelib tushgan tushumlarni inobatga olgan holda belgilangan muddatlarda “Suv yetqazib berish xizmati” davlat muassasalarining alohida ochilgan g‘aznachilik hisob raqamlariga o‘tqazib boriladi.